

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TAJIBAYEV KOMILJON QURBANOVICH

**MAHALLIY ISTE'MOL BOZORLARIDA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMI
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economics Sciences**

Tajibayev Komiljon Qurbanovich

Mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi (Namangan viloyati misolida) 3

Тажибаев Комилжон Курбанович

Механизм повышения конкурентоспособности субъектов малого предпринимательства на местных потребительских рынках (на примере Наманганской области)..... 25

Tajibaev Komiljon Kurbanovich

Mechanism for increasing the competitiveness of small businesses in local consumer markets (in the example of the Namangan region) 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TAJIBAYEV KOMILJON QURBANOVICH

**MAHALLIY ISTE'MOL BOZORLARIDA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMI
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/Iqt1623 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namnti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sirojiddin Kamoliddin Ikromiddinovich Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Aripov Oybek Abdullayevich Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor Ibragimov Isroil Usmanovich Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.I.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "23" 10 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (312 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil " 5 " 10 kuni tarqatildi.
(2024-yil " 5 " 10 dagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.D.Sayitbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Muxitdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

R.I.Israilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatda kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlashning samarali mexanizmini ishlab chiqilganligi ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi salmoqli bo'lishiga olib kelmoqda. Masalan, "Evropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 75%, AQShda qariyb 53%, Yaponiyada 55%, Rossiyada esa 23% ga yaqin. Kichik biznes sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni Yevropa Ittifoqida – 22 million, Rossiyada – 6 million, AQShda – 23 million, Yaponiyada 9 milliondan ortiqdir"¹. Kichik biznes subyektlarining asosiy faoliyati mahalliy iste'mol bozorlari bilan bog'liqligi uning milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishidagi ahamiyati oshiradi va sohani raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmini doimiy ravishda tadqiq etish hamda takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Bu esa kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun xizmat qiladi.

Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi tadqiqiga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini tadqiq etishning konseptual asoslarini kengaytirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash omillarini aniqlash, raqobatbardoshlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlarining mahalliy iste'mol bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini takomillashtirish, xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish, investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda mahalliyashtirish dasturlaridagi ishtirokini faollashtirish negizida raqobatbardoshlikni oshirish yo'nalishlarini o'rganish bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini har tomonlama davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali soha raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish"², kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni bajarish O'zbekistonda mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini ilmiy muammosini nazariy-konseptual asoslarini chuqur tahlil qilish, kichik biznesni raqobatbardoshligini rivojlanish tendensiyalarini va ustuvor

¹ Коваленко Н. В., Сулейманова Т. А. Отечественный и зарубежный опыт государственной поддержки малого и среднего предпринимательства // ЦИТИСЭ. — 2020. — № 2. — С.471-485. DOI: <http://doi.org/10.15350/2409-7616.2020.2.41>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son

yoʻnalishlarini amaliy jihatdan oʻrganishni taqazo etadi. Shuning uchun kichik biznes subyektlarining, xususan ularning mahalliy isteʼmol bozorlaridagi raqobatbardoshligi muammosi oʻta muhim, chunki u bevosita kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bilan bogʻliq boʻlib, dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-son “Maʼmuriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2023-yil 10-yanvardagi PF-1-son “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrda “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini ragʻbatlantirish va raqobatdoshligini taʼminlash yuzasidan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5286-son Farmoniga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida”, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son “Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qoʻshilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini ragʻbatlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2023-yil 10-fevraldagi PQ-51-son “Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishni ragʻbatlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va ularni mexanizmini takomillashtirish masalalari qator chet ellik va oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlarida oʻz aksini topgan.

Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi masalalari xorijiy olimlardan A.Smit, Y.Shumpeter, J.Robinson, I.Kirzner, F.Kotler, M.Porter, K.Isikava, I.Ansoff va boshqalarning asarlarida oʻz aksini topgan³.

MDH davlatlarida R.A.Fatxutdinov, S.A.Tumenova, L.P.Kurakov, V.L.Kurakov, V.M.Kruglik, T.Shadibayev, A.Kostin, A.P.Shixverdiyev, N.I.Komkov, A.V.Lazarev, L.N.Kachalina, M.Yu.Stiglis, L.N.Chaynikova, V.N.Chaynikov, A.G.Mokronosov, I.N.Mavrina asarlarida kichik biznes

³ Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Антология экономической классики. В 2т. М.,1993. 396с.; Й. Шумпетер. Теория экономического развития. М., 1982.; Schumpeter, Joseph (1942). Капитализм, социализм и демократия. Нью-Йорк: Издательство Harper and Roe Publishers. стр. 82.; Экономическая теория несовершенной конкуренции : Пер. с англ. / Дж. Робинсон; Вступ. ст. и общ. ред. И. М. Осадчей. - Москва : Прогресс, 1986. - 471,[1] с. : граф.; 21 см. - (Экон. мысль Запада. ЭМЗ); ISBN (В пер.) (В пер.) :стр.143; *Hayek F.* Individualism and Economic Order. Chicago. 1980. P.102.; Kirzner, I. Equilibrium versus market process. In The Foundations of Modern Austrian Economics I. Kirzner. – Kansas, 1976. – P. 115–125.; Котлер Ф. Основы маркетинга: Пер. с англ. – М.: Прогресс, 2000. –с.168.; Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. М.: Международные отношения, 1993. 896 с.; Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов. М.: Альпина Бизнес-Букс, 2005. 454 с.; Исикава К. Японские методы управления качеством / Сокр. пер. с англ. - М.: Экономика, 1998. - 215 с.; Игорь Ансофф: «Стратегическое управление»: Экономика; Москва; 1989 г 37 стр.

subyektlari raqobatbardoshligi oshirish mexanizmining nazariy jihatlarini yoritib berilgan⁴.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlari va ularning raqobatbardoshligi masalalari Yo. Abdullayev, M.R. Boltaboyev, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxodjaeva, B.K. G'oyibnazarov, A.N. Samadov, Sh. Otajonov, O. Aripov, D.S. Qosimova, R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov, U.P. Umurzakov, A.J. Toshboyev, B.T. Salimov, M.S. Yusupov, M.T. Yaxshieva va boshqalarning asarlarida o'rganib chiqilgan⁵. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligi tushunchalarini izchil tizimga bog'lovchi yagona yondashuv ishlab chiqilmagan. Tadqiqotchilar mahsulotlar ishlab chiqarish hamda mahalliy bozorlarni to'yintirishga asosiy e'tiborni qaratganlar. Ammo, kichik biznes subyektlarining mahalliy iste'mol bozorlarida raqobatbardoshligi muammosi yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish" mavzusidagi amaliy tadqiqoti loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁴ Фатхутдинов, Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление / Р.А. Фатхутдинов. – М. : ИНФРА-М, 2000. – 312 с; Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность организации в условиях кризиса: экономика, маркетинг, менеджмент. – М.: Изд-во Книготорг центр, 2002. – 886 с; Фатхутдинов Р. А. Стратегический маркетинг: учебник. М.: Дело, 2001. 448 с; С.А. Туменова. Региональная конкурентоспособность в новой экономике: концепции, методы, модели. – Нальчик: Издательство КБНЦ РАН, 2019. – 200 с. 11,66-с; Кураков, Л.П. Большой толковый словарь экономических и юридических терминов / Л.П. Кураков, В.Л. Кураков. – М. : Вуз и школа, 2001. – 720 с.; Конкурентоспособность предприятия (фирмы): Уч.пос. / В.М.Круглик; Под общ. ред. В.М. Круглик. - М.: НИЦ ИНФРА-М; Мн.: Нов.знание, 2013. - 285 с. 26 с.: Шадибаев Т. и др. Особенности антимонопольной политики в Узбекистане: общие принципы и правовая база. - Экономическое обозрение, №2, 2004, с.5.; Социальная ответственность в корпоративном управлении: эффективная капитализация // Костин А. Корпоративное управление. – 2007. – № 3. 9 стр.; Шихвердиев А.П. Управление конкурентоспособностью в малом и среднем бизнесе: монография. - Сыктывкар: Изд. СыктГУ, 2012. - 149 с. 9 стр,12-13-с; Комков Н. И., Лазарев А. В. Подходы к оценке экономической категории «конкурентоспособности» // Проблемы прогнозирования. 2007. № 4. С. 5–20.⁴ Качалина Л.Н. Конкурентоспособный менеджмент. - М.: ЭКСМО, 2006. - 464 с.; Стиглиц М.Ю. Экономика государственного сектора. М.: МГУ, 1997. 720 с.; Конкурентоспособность предприятия : учеб. пособие / Л.Н. Чайникова, В.Н. Чайников. – Тамбов : Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2007. – 192 с, 19 стр.; Конкуренция и конкурентоспособность : учебное пособие / А. Г. Мокроносов, И. Н. Маврина. – Екатеринбург : Изд-во Урал ун-та, 2018. – 194 с.

⁵ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. - T.: «Mehnat», 1997, 57-58-6.; Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. Boltaboev M.R, Qosimova M.S, Ergashxodjaeva SH.J, G'oyibnazarov B.K, Samadov A.N, Otajonov SH. -T.: Iqtisodiyot, 2012. -289 bet. 224-bet; O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish / O.Aripov; mas'ul muxarrir T.E.Ergashev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Namangan Muxandislik-pedagogika ins-ti. - T: Fan, 2012. - 272 b. 222-bet; D.S.Qosimova. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. -T.: «Innovacion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi», 2020,328 bet. 86-bet; R.S.Muratov, I.A.DJalalova, S.Sh.Oripov. "Korxonona iqtisodiyoti" - Darslik. – T.: TDIU, 2011 - 500 b. 77-bet.; U.P. Umurzakov, A.J.Toshboyev. Kichik biznes va tadbirkorlik / o'quv qollanma. Toshkent: «Sano-standart», 2014. - 480 bet. 37-38 betlar; B.T.Salimov, M.S.Yusupov. Mikroiqtisodiyot-2. Darslik. –T.: «Innovacion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 296 b. 37-bet; Yaxshieva M.T. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi: O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 280 bet. 7- bet

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlarni ochib berish;

kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash omillarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

kichik biznes raqobatbardoshligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini har tomonlama chuqur o'rganib chiqish;

kichik biznes subyektlarining viloyat iqtisodiyotidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalarini iqtisodiy tahlil qilish;

Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlashdagi mavjud muammolarni o'rganish va muammolar yechimi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlarida raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmini takomillashtirish jarayonlarini tadqiq etish va takliflar ishlab chiqish;

mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari tomonidan xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari oshirish yo'llarini o'rganish;

kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash konsepsiyasi va uning hayot siklini uzaytirish yo'nalishlarini aniqlash;

kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda mahalliyashtirish dasturlaridagi ishtirokini faollashtirish negizida raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarini o'rganish va tasniflash.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib kichik biznes subyektlarining mahalliy iste'mol bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, guruhlash, jadval, SWOT-tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kichik biznes subyekti raqobatbardoshligi" iqtisodiy kategoriyasining mazmuni uning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati, mamlakat ichida va undan tashqarida mazkur tarmoqning boshqa korxonalariga nisbatan raqobatdosh ustunliklarini aks ettirib, faqat bir tarmoqqa mansub korxonalar guruhi doirasida baholash mumkinligi sababli raqobatbardoshlik darajasini baholash o'z tarkibiga taqqoslash uchun asosiy ob'ektlarni tanlashni olishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini baholashda mazkur toifaga mansub bo'lgan har bir korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va narxining o'zaro nisbat tavsifi orqali namoyon bo'luvchi "o'ta kuchli raqobatbardosh" ($1,33 \leq R_T \leq 2$), "kuchli raqobatbardosh" ($1 \leq R_T \leq 1,33$), "muvozanatli raqobat" ($0,75 \leq R_T \leq 1$), "past raqobatbardosh" ($0,5 \leq R_T \leq 0,75$), "o'ta past raqobatbardosh" ($0,1 \leq R_T \leq 0,5$) guruh chegaralariga ko'ra yondashish taklifi asoslangan;

Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini korxonaga to'g'risida xaridorlarning ijobiy taassuroti (X_T), tovar yetkazib berish shartnomalarini bajarish sifati (Sh_S), mahsulotlarning yangilanib borishi darajasi (M_{Ya}), yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish (Yu_S) omillarining maqbul nisbati ($0,17; 0,24; 0,21; 0,28$) ni ta'minlash orqali oshirish taklifi asoslangan;

Namangan viloyati mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali rivojlanishi tendensiyalarini o'zgarishi modeli asosida 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarning hususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy va nazariy yondashuvlar kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligiga omillar ta'sirini tahlil qilishda va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilashda samara berishi asoslangan;

kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi o'zaro bog'liqligini tadqiq etgan holda mahsulotning raqobatbardoshligi darajasini narx va sifat orqali aniqlash shkalasi yordamida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining mahalliy iste'mol bozorlaridagi raqobatbardoshligini aniqlash imkoni yaratilgan;

kichik biznes subyektlarining mahalliy iste'mol bozorlaridagi raqobatbardoshligini uning integral ko'rsatkichlari bilan baholash imkoni aniqlangan;

milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarini rivojlanishi, kichik biznes subyektlarining raqobat strategiyasini ishlab chiqish hamda ularni raqobatbardoshligini ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligining oshirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika qo'mitasining ma'lumotlari hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqotlarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy qoida va xulosalardan mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asosini ishlab chiqish, kichik biznes subyektlarining raqobat strategiyasini amalga oshirish borasidagi yondashuvlarni asoslab berish, ularning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini takomillashtirishga hissa qo'shishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotlarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa, taklif va tavsiyalardan mahalliy iste'mol bozorlarida kichik

biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishning mexanizmini takomillashtirishda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo va sanoat palatasi tomonidan maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Hozirgi zamon raqobat nazariyalari", «Raqabat siyosati», "Kichik biznes va tadbirkorlik" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kichik biznes subyekti raqobatbardoshligi" iqtisodiy kategoriyasining mazmunini uning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati, mamlakat ichida va undan tashqarida mazkur tarmoqning boshqa korxonalariga nisbatan raqobatdosh ustunliklarini aks ettirib, faqat bir tarmoqqa mansub korxonalar guruhi doirasida baholash mumkinligi sababli raqobatbardoshlik darajasini baholash o'z tarkibiga taqqoslash uchun asosiy ob'ektlarni tanlashni olishi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Agrosanoat majmuasida marketing" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda raqobatbardoshlik darajasini baholash o'z tarkibiga taqqoslash uchun asosiy ob'ektlarni tanlashni olishi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "kichik biznes subyekti raqobatbardoshligi" iqtisodiy kategoriyasining mazmuniga oid nazariy bilimlar hosil qilish imkoni yaratilgan;

kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini baholashda mazkur toifaga mansub bo'lgan har bir korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va narxining o'zaro nisbat tavsifi orqali namoyon bo'luvchi "o'ta kuchli raqobatbardosh" ($1,33 \leq R_T \leq 2$), "kuchli raqobatbardosh" ($1 \leq R_T \leq 1,33$), "muvozanatli raqobat" ($0,75 \leq R_T \leq 1$), "past raqobatbardosh" ($0,5 \leq R_T \leq 0,75$), "o'ta past raqobatbardosh" ($0,1 \leq R_T \leq 0,5$) guruh chegaralariga ko'ra yondashish taklifidan Namangan viloyatidagi "Namangan ta'mirlash va butlash" MChJ amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 26 iyuldagi 13/08-3-4-10294-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Namangan ta'mirlash va butlash" MChJ faoliyat rentabelligining 4,1 punktga yaxshilanishiga olib kelgan;

Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini korxonalar to'g'risida xaridorlarning ijobiy taassuroti (X_T), tovar yetkazib berish shartnomalarini bajarish sifati (Sh_S), mahsulotlarning yangilanib borishi darajasi (M_{Ya}), yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish (Y_{uS}) omillarining maqbul nisbati ($0,17; 0,24; 0,21; 0,28$) ni ta'minlash orqali oshirish taklifidan Namangan viloyatidagi "Namangan ta'mirlash va butlash" MChJ amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024 yil 26 iyuldagi 13/08-3-4-10294-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Namangan ta'mirlash va butlash" MChJda ishlab chiqarilgan har bir tovarini bozorda sotish ulushining o'zgarishini va ularning korxonalar sotuv hajmidagi ulushi o'zgarishini hisobga olgan holda korxonalar raqobatbardoshligi

integral ko'rsatkichining dinamikasi aniqlanib, korxonalar raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichi 2021-yildagi 0,0724 dan 2022-yilda 0,1798 gacha oshgan;

Namangan viloyati mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali rivojlanishi tendensiyalarini o'zgarishi modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "Namangan viloyati kichik biznes subyektlarining 2030 yilgacha bo'lgan raqobat strategiyalari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 26-iyuldagi 13/08-3-4-10294-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatida uzoq muddatli istiqbolda mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy parametrlarining aniqligi va o'zaro muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish, shundan 5 ta mahalliy jurnallarda, 5 ta xalqaro jurnallarda maqola, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi aniqlanib, vazifalari belgilangan hamda ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kichik biznesda raqobatbardoshlik va uni ta'minlashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar ilmiy-nazariy tahlili, kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash omillari hamda kichik biznes raqobatbardoshligining davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi ahamiyati zarurligi atroflicha tadqiq etilgan.

Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligiga konseptual yondashuvlar, avvalo, raqobat tushunchasiga berilgan ta'riflarda namoyon bo'lmoqda. Raqobat - mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (subyekt)lar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurash⁶. Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat o'zlarining

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. O'zbekiston NMIU-2020 yil. 360-bet.

iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun amalga oshiriladi. Ishlab chiqaruvchilar va resurelarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yaqqol namoyon bo'ladi⁷.

Tadqiqotlarimizga ko'ra, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini, mamlakat ichida va undan tashqarida ushbu tarmoqning boshqa korxonalariga nisbatan raqobatdosh ustunliklarini aks ettiradi. Kichik biznes subyektning raqobatbardoshligini faqat bir tarmoqqa mansub korxonalar guruhi doirasida baholash mumkin, shuning uchun bunday subyektlarning raqobatbardoshlik darajasini baholash, birinchi navbatda, taqqoslash uchun asosiy ob'ektlarni tanlashni o'z ichiga oladi.

Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligi ko'plab olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan.(1-jadval)

Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi birinchi navbatda unga ta'sir etuvchi qator omillarga bog'liq. Jahon olimlari tomonidan nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda raqobatbardoshlikni belgilovchi omillarni turlicha qiyosiy tahlillar keltirilgan. Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash dinamik kategoriya bo'lib bir qator omillarga bog'liq.

1-jadval

Kichik biznes subyektning raqobatbardoshligi talqinlari

Muallif	Talqini
Kotler F.	Raqobatbardoshlik – xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlarning musobaqalashuvi bo'lib, bu ularning bozordagi tovarlari xarakati sharoitlarini samarali cheklaydi.
Lamben J.J.	Bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o'rtasida tovar ishlab chiqarish va uni sotish uchun eng yaxshi sharoitlar uchun raqobat.
Barinov B	Ob'ektlarning raqobatbardoshligi uning elementlari raqobatbardoshligidan va ularni maqsadga erishish tizimidan tarkib topadi.
Blinov A.O., Zaxarov V.Ya.	Korxonaning raqobatbardoshligi deganda maqsadlarga erishish imkonini beruvchi raqobatchilardan ustunlikni yaratish qobiliyati tushuniladi.
Fatxutdinov R.A.	Ob'ektning bozorda taqdim etilgan tovarlarning o'xshash tovarlarga nisbatan aniq ehtiyojni real yoki potensial qondirish darajasi bilan tavsiflanuvchi xususiyati. Raqobatbardoshlik ma'lum bir bozorda o'xshash ob'ektlarga nisbatan raqobatbardoshligi qobiliyatini belgilaydi.
Azoev G.L.	Iqtisodiy jarayonlarning aloqadorligi bozorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'zaro aloqalari va kurashi bilan bog'liq.
Gluxov A.L.	Korxonaning bozordagi hozirgi holati, birinchi navbatda, egallab turgan bozor ulushi-umumiy bozor va raqobatchi korxonalarining sotish hajmlari va uning o'zgarish tendensiyalariga nisbatan sotish hajmiga bog'liq.
Gladisheva I.V.	Tashkilotning o'zining raqobatbardoshlik afzalliklaridan foydalanish darajasi va bosqichlari bilan belgilanadigan tashqi va ichki muhitning doimiy o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish qobiliyati va shu davr mobaynida rentabellikni saqlab qolish xarakteristikasi.

Nazariy uslubiy asoslardan kelib chiqib mualliflik yondashuviga ko'ra "kichik biznes subyekti raqobatbardoshligi" iqtisodiy kategoriyasining mazmuni uning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati, mamlakat ichida va undan tashqarida mazkur tarmoqning boshqa korxonalariga nisbatan raqobatdosh

⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqobat>

ustunliklarini aks ettirib, faqat bir tarmoqqa mansub korxonalar guruhi doirasida baholash mumkinligi sababli raqobatbardoshlik darajasini baholash o'z tarkibiga taqqoslash uchun asosiy ob'ektlarni tanlashdan iborat.

Bizning fikrimizcha, raqobatda faol ishtirok etayotgan kichik biznes subyektlarning iqtisodiyotda samarali ishlashi uchun, jumladan ularning raqobatbardoshligini ta'minlash, fan va amaliyotga ma'lum bo'lgan ishlab chiqarishning barcha omillari, moddiy va xom ashyo resurslari, kadrlar salohiyati, investitsiyalar, keng salohiyatli baza, tashabbuskorlik, tadbirkorlik va boshqa omillardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes subyektlar raqobatbardoshligini oshishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, tarmoq korxonalariga, mintaqa va umuman olganda mamlakat iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini yanada oshirish ular tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan qator tadbirlarga bog'liqdir.(1-rasm)


Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini shakllantirishda davlat tomonidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes subyektlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlarni, mustahkam huquqiy-me'yoriy bazani shakllantirish;

- mamlakatda mavjud monopolistik korxonalar va tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatlarini jiddiy nazoratga olish va tartibga solish;

- iqtisodiyotda g'irrom raqobat, kelishib olib boriladigan harakatlar (bitimlar) ustidan davlat, nodavlat jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- raqobatbardoshlik bilan bog'liq qabul qilingan davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati muassasalari hujjatlari ustidan nazorat olib borish.




1-rasm. Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish shartlari⁸

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertasiya ishining “**Namangan viloyati mahalliy iste’mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobat muhitining shakllanish ko‘rsatkichlari tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida kichik biznes subyektlarining Namangan viloyat iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Bundan tashqari mahalliy iste’mol bozorlarida kichik biznes subyektlarida raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmini takomillashtirish va kichik biznes raqobatbardoshligini ta’minlashdagi mavjud muammolar tahlili masalalari ko‘rib chiqilgan.

Namangan viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2010-2022 yillarda davomida ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilgan⁹.(2-rasm)

Pandemiya ta’sirini kamayib borishi 2022 yilda viloyat tashqi savdo aylanmasi 1276,1 mln AQSh dollargacha etib, eksport 581,2 mln AQSh dollarini, import 694,9 mln AQSh dollarini tashkil etgan holda savdo balansi saldosi -113,7 mln AQSh dollarini tashkil etib tashqi savdoda salbiy savdo balansiga erishilgan bo‘lsa, shundan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hisssasi sezilarli oshib 764,4 mln AQSh dollari miqdorida, shundan umumiy eksportning 262,7 mln AQSh dollari 45 foizi, importning 501,7 mln AQSh dollari miqdorida yoki umumiy importning 72 foizi to‘g‘ri kelgan¹⁰.



2-rasm. Namangan viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikning ulushini

Mahalliy xokimiyat tomonidan kichik biznes subyektlari va ularda yaratilgan ish o‘rinlari sonidan kelib chiqqan holda ularni, rag‘batlantirish bo‘yicha yangi tizim joriy etish sohani rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Namangan viloyatda kichik biznesni subyektlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ayniqsa tadbirkorlarga kredit, yer va bino ajratish, infratuzilmaga ulash kabi masalalarda ko‘maklashish kerak.

Tadqiqotlarimiz davomida kichik biznes subyekti mahsulotlarini baholashni qo‘llaydigan asosiy yondashuv sifatida korxonaning ishlab chiqarayotgan

⁹ manba:Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari. <http://www.namstat.uz/uz/>

¹⁰ manba:Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari. <http://www.namstat.uz/uz/>

mahsulotlarining raqobatbardoshligi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlaydi degan mulohazaga keldik. Mahsulotning raqobatbardoshligini baholaydigan ko'rsatkich sifatida ikkita tavsifning nisbatini oldik: sifat va narx. Eng raqobatbardosh mahsulot ushbu tavsiflarni optimal nisbatiga ega:

$R_T = S/N=1/0,50=2$; $(1,33 \leq R_T \leq 2)$ -o'ta kuchli raqobatbardosh,

$R_T = S/N=1/0,75=1,33$; $(1 \leq R_T \leq 1,33)$ -kuchli raqobatbardosh

$R_T = S/N=1/1=1$; $(0,75 \leq R_T \leq 1)$ -muvozanatli raqobat

$R_T = S/N=0,75/1=0,75$; $(0,5 \leq R_T \leq 0,75)$ -past raqobatbardosh

$R_T = S/N=0.50/1=0.5$; $(0,1 \leq R_T \leq 0,5)$ -o'ta past raqobatbardosh

Bu yerda,

R_T - tovarning raqobatbardoshlik ko'rsatkichi,

S – tovarning sifat ko'rsatkichi,

N – tovar narxi ko'rsatkichlari.

S = 1 bo'lsa oliy sort, 0,75 bo'lsa birinchi sort, 0,50 bo'lsa ikkinchi sort.

N= 1 bo'lsa tovar narxi ko'rsatkichlari yuqori, 0,75 bo'lsa tovar narxi ko'rsatkichlari o'rtacha, 0,50 bo'lsa tovar narxi ko'rsatkichlari past.

“Namangan ta'mirlash va butlash” ma'suliyati cheklangan jamiyatida juda keng turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradilar. Bunday holda, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini baholash yanada murakkablashadi. Biz korxonada tomonidan ishlab chiqarilayotgan asosiy uchta mahsulot bo'yicha raqobatbardoshlikni integral ko'rsatkichlarini hisoblab chiqamiz. (2-3 jadval)

2-jadval

“Namangan ta'mirlash va butlash” MChJda ishlab chiqarish hajmi (so'm)

Tovarlar	2018	2019	2020 yil	2021 yil	2022 yil
O'quv mebellari	3 988 954 658	4 412 548 564	4 987 854 624	4 687 321 654	5 787 011 958
Tibbiyot uchun mebellar	39 985 951	42 564 865	63 564 584	75 658 542	83 685 500
Oshxona mebellari	167 689 357	175 683 649	186 683 534	198 356 564	203 282 625

3-jadval

“Namangan ta'mirlash va butlash” MChJda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bozor va sotish hajmidagi ulushlari

Yillar	O'quv mebellari		Tibbiyot uchun mebellar		Oshxona mebellari	
	bozor ulushi	korxonada sotish hajmidagi ulushi	bozor ulushi	korxonada sotish hajmidagi ulushi	bozor ulushi	korxonada sotish hajmidagi ulushi
2018	10%	30 %	20%	20%	3%	8%
2019	14%	32 %	14%	12 %	4%	8 %
2020	11%	29 %	18%	14 %	3%	9 %
2021	11%	32 %	21%	22%	4%	7%
2022	25%	30 %	50%	20 %	6%	8 %

Korxonada mahsulotlardan foydalanib, korxonada raqobatbardoshligining integral ko'rsatkichlarini aniqlaymiz:

$$I_{RAQ}^K = 0,03 + 0,04 + 0,0024 = 0,0724$$

Formula yordamida bozor o'zgarishini hisobga olgan holda korxonaning raqobatbardoshligining so'nggi integral ko'rsatkichini aniqlaymiz:

$$I_{RAQoxirgi}^K = 0,075 + 0,1 + 0,0048 = 0,1798.$$

Bundan ko'rinib turibdiki, shartlar o'zgarganda korxonaning integral ko'rsatkichi 0,0724 dan 0,1798 gacha oshdi. Bu korxonaning raqobatbardoshligi 2021 yilga qaraganda 2022 yilda oshganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, agar korxonaning keyingi integral ko'rsatkichi avvalgisidan katta bo'lsa, $I_{RAQoxirgi}^K > I_{RAQ}^K$ unda korxonaning raqobatbardoshligi oshadi. Agar korxonaning raqobatbardoshligining keyingi integral ko'rsatkichi oldingisiga teng bo'lsa, $I_{RAQoxirgi}^K = I_{RAQ}^K$ unda korxonaning raqobatbardoshligi barqarordir. Agar korxonaning raqobatbardoshligining oxirgi integral ko'rsatkichi avvalgisidan kam bo'lsa, $I_{RAQoxirgi}^K < I_{RAQ}^K$ unda korxonaning raqobatbardoshligi pasayganligini ko'rsatadi.

Korxonaning integral ko'rsatkichlari farqining oldingi integral ko'rsatkichga nisbati o'rganilayotgan vaqt davomida korxonaning raqobatbardoshligining o'zgarishini (1) ko'rsatadi.

$$K_{RAQ}^D = \frac{I_{RAQ(i+1)}^P - I_{RAQ(i)}^P}{I_{RAQ(i)}^P}, \quad (1)$$

bu yerda:

K_{RAQ}^D - korxonaning raqobatbardoshligi dinamikasi koeffitsienti;

$I_{RAQ(i+1)}^K$ - hisobot davri ohirida aniqlangan korxonaning raqobatbardoshligini integral ko'rsatkichi;

$I_{RAQ(i)}^P$ - dastlabki davrda aniqlangan korxonaning raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichi.

$$K_{RAQ}^D = \frac{0,1798 - 0,0724}{0,0724} = \frac{0,1074}{0,0724} = 1,48$$

Kichik biznes subyekting raqobatbardoshligini uning integral ko'rsatkichi dinamikasidan foydalangan holda baholash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Raqobatbardoshlik dinamikasini "Namangan ta'mirlash va butlash" mas'uliyati cheklangan jamiyatida, integral ko'rsatkichlari asosida hisoblash¹¹

№ tovar pozitsiyalari	Yillar bo'yicha ko'rsatkichlar														
	2018			2019			2020			2021			2022		
	ΔT_R	ΔT_V	I_{RAQ}^P	ΔT_R	ΔT_V	I_{RAQ}^P	ΔT_R	ΔT_V	I_{RAQ}^P	ΔT_R	ΔT_V	I_{RAQ}^P	ΔT_R	ΔT_V	I_{RAQ}^P
1	2			3			4			5			6		
O'quv mebellari	10	30	0,03	14	32	0,0448	11	29	0,0319	11	32	0,0352	25	30	0,075
Tibbiyot mebellari	20	20	0,04	14	12	0,0168	18	14	0,0252	21	22	0,0462	50	20	0,1
Oshxonalar mebellari	3	8	0,0024	4	8	0,0032	3	9	0,0027	4	7	0,0028	6	8	0,0048
I_{RAQ}^P	0,072			0,065			0,06			0,084			0,18		
K_{RAQ}^D	—			-0,1041			-0,0772			0,4081			1,135		
R	15,8			16,2			17,8			18,4			19,9		
R ₀	19,6			29,4			21,1			25			24,2		

¹¹ "Namangan ta'mirlash va butlash" mas'uliyati cheklangan jamiyati ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Izoh:

ΔTR — tovarning bozordagi ulushi

ΔTV — tovarning korxonalar sotish hajmidagi ulushi;

I_{RAQ}^T — tovarning raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichlari;

I_{RAQ}^P — korxonaning raqobatbardoshligi integral ko'rsatkichlari;

K_{RAQ}^D — korxonalar raqobatbardoshligi dinamikasi koeffitsienti;


R - "Namangan ta'mirlash va butlash" mas'uliyati cheklangan jamiyati rentabellik ko'rsatkichi;

R^0 — Respublika bo'yicha tarmoqning o'rtacha rentabelligi ko'rsatkichi.

Biz tahlil qilayotgan kichik biznes subyekti rentabelligini o'sishi tarmoq korxonalari rentabelligi ko'rsatkichlariga nisbatan pastroq ekanligini ko'rish mumkin. Shunga mos ravishda biz o'rganib chiqqan "Namangan ta'mirlash va butlash" MChJ korxonasi raqobatbardoshligi tarmoq korxonalari o'rtacha ko'rsatkichidan past bo'lishiga qaramay yildan yilga oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz respondentlar o'rtasida mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish uchun so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma bilan https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSdr3STQ_BI9kf8NGLenCp_5goMIMk38i2o-jQjccs-AkFQW_g/viewform orqali batafsil tanishishimiz mumkin.

Namangan viloyatida kichik biznes va uning raqobatbardoshligi borasidagi muammolarni o'rganish maqsadida respondentlar o'rtasida sohani baholash bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari asosida Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini juda yomon, yomon, qoniqarli, yahshi va juda yahshi ko'rsatkichlari orqali baholandi.(3-rasm)



3-rasm. Kichik biznes va uning raqobatbardoshligini baholash mavzusidagi o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, Namangan viloyatida sog'lom raqobat muhitini yaratish va kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda aksariyat hollarda quyidagi muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarimiz davomida Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasi aniqlandi. Bunda tadqiqot ekspert usuli asosida raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsatuvchi 4 ta asosiy

omillar tanlab olindi. Raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi "Xaridorlarning ijobiy taassuroti (X_t)", "Shartnomalarini bajarish sifati (Sh_s)", "Mahsulotlarning yangilanib borishi darajasi (M_{ya})" va "Yuqori sifatli mahsulot (Yu_s)" omillarni ekspertlar tomonidan baholash natijalariga ko'ra maqbul nisbat koeffitsientlari umumiy $Y_k \leq 0,9$ bo'lsa kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasi barqaror yoki yuqori deb baholanishi mumkin. Bunda raqobatbardoshlikning maqbul nisbat koeffitsienti (2) formula asosida ko'rsatgichlarga mos holda aniqlash mumkin bo'ladi.

$$Y_k = \frac{X_k}{\sum_{i=1}^n X_i} \quad (2)$$

Bu yerda:

Y_k - maqbul nisbat koeffitsienti ;

X_k - asosiy omillarga mos keluvchi ko'rsatgichlar;

n – ta'sir etuvchi asosiy omillar soni.

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillarning baholash natijalariga ko'ra maqbul nisbat koeffitsientlari (5-jadvalda) aks etgan.

5-jadval

Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillarning maqbul nisbati¹²

№	Asosiy omillar	Maqbul nisbati
1	Xaridorlarning ijobiy taassuroti (X_t)	0.17
2	Shartnomalarini bajarish sifati (Sh_s)	0.24
3	Mahsulotlarning yangilanib borishi darajasi (M_{ya})	0.21
4	Yuqori sifatli mahsulot (Yu_s)	0.28

Tahlil natijalariga ko'ra Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillarning darajasi Yuqori sifatli mahsulot ($Yu_s=0,28$), Shartnomalarini bajarish sifati ($Sh_s=0,24$), Mahsulotlarning yangilanib borishi darajasi ($M_{ya}=0,21$) hamda Xaridorlarning ijobiy taassuroti ($X_t=0,17$) tashkil etdi. Fikrimizcha yuqorida tahlil natijalariga binoan aniqlangan maqbul nisbat koeffitsienti har bir omilning ma'lumotlar darajasiga qarab o'zgarishi mumkin. Biroq tanlangan omillarning umumiy yig'indisi 0.9 yoki undan yuqori bo'lsagina kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasi barqaror deb baholanadi.

Kichik biznes subyektlarining raqobatdoshligini ta'minlashda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va buyurtmachilarning shartnomalarni o'z vaqtida bajarish omillarning ta'siri yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib kichik biznes subyektlari faoliyati davomida yuqorida tahlil etilgan omillarni doimiy e'tiborga olgan holda bozor tahlil va tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatli hisoblanadi.

